

ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA BADIY SAN'ATLAR VA ULARNING TARJIMA MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.009>

Nilufar Xabibullayevna Karimova
nkarimova403@gmail.com
Fan va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zaxiriddin Muhammad Bobur poeziyasida qo'llangan badiiy san'at va ularning rus hamda fransuz tillariga tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan muammolar qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Asosiy e'tibor ruboiy va g'azal janrlarida ifoda etilgan ishq, hijron, pushaymonlik va inson o'jizligi motivlarining tarjima jarayonida saqlanishi yoki transformatsiyaga uchrashi masalalariga qaratilgan. Uch tilli (o'zbek-rus-fransuz) qiyosiy tahlil orqali Bobur poeziyasining milliy adabiy an'analarga tayangan holda umuminsoniy estetik qiymatga ega ekani ochib beriladi. Maqolada tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan semantik ekvivalentlik, badiiy kompensatsiya va obrazli transformatsiya usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy san'at, ishq lirikasi, ruboiy, g'azal, tarse', tardi aks, zulfikofiyatayn, muvozana, hajib va redif, qiyosiy adabiyot, tarjima nazariyasi, semantik ekvivalentlik, badiiy kompensatsiya, o'zbek-rus-fransuz tarjimalari

ARTISTIC DEVICES IN THE WORKS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND THE PROBLEMS OF THEIR TRANSLATION

Nilufar Khabibullaevna Karimova
nkarimova403@gmail.com
University of Science and Technology

Abstract: This article presents a comparative and analytical study of the artistic devices employed in the poetry of Zahiriddin Muhammad Babur, as well as the challenges arising in the process of translating these devices into Russian and French. Particular attention is paid to the preservation or transformation of the motifs of love, separation, repentance, and human vulnerability expressed in the genres of rubā'ī and ghazal during translation. Through a trilingual (Uzbek-Russian-French) comparative analysis, the study reveals the universal aesthetic value of Babur's poetry, grounded in national literary traditions. From the perspective of translation theory, the article

examines such translation strategies as semantic equivalence, artistic compensation, and figurative transformation.

Keywords: artistic devices, love lyrics, rubāʿī, ghazal, tarseʿ, tardi aks, zulfikofiyatayn, muwāzana, hajib, radif, comparative literature, translation theory, semantic equivalence, artistic compensation, Uzbek-Russian-French translations

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzbek klassik adabiyoti tarixida eng serqirra, koʻp qirrali va betakror shaxslardan biri sifatida alohida oʻrin tutadi. Uning hayot yoʻli uzluksiz harbiy yurishlar, murakkab siyosiy kurashlar hamda majburiy koʻchishlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Tabiiyki, mazkur omillar shoir ijodining mavzu doirasi, obrazlar tizimi va ruhiy kechinmalariga chuqur taʼsir koʻrsatgan. Boburning poetik merosi doimiy hayotiy sinovlar, ichki ziddiyatlar va taqdir sinovlari taʼsirida shakllangan boʻlib, uning lirikasida chuqur hissiy taranglik, falsafiy mushohada va yuksak badiiy nafosat uygʻun holda namoyon boʻladi.

Shu bois Bobur asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida tarjimon faqat til vositalarinigina emas, balki asar yaratilgan tarixiy-biografik muhitni, muallifning dunyoqarashini hamda uning badiiy usullar tizimini ham inobatga olishi shart. Ushbu omillarga yuzaki yondashish asar mazmuni va estetik qiymatining yoʻqolishiga, natijada tarjima sifatining pasayishiga olib keladi. Klassik oʻzbek adabiyoti namunalarining badiiy tarjimasi tarjimondan yuqori darajadagi filologik bilim, Sharq poetikasi anʼanalarini chuqur anglash va tarjima tilida adekvat ifoda vositalarini topa olish mahoratni talab qiladi.

Klassik oʻzbek adabiyoti, xususan Zahiriddin Muhammad Bobur poeziyasi, badiiy sanʼatlar va uslubiy vositalarga gʻoyatda boy boʻlib, ularning aksariyati boshqa tillarda toʻliq va aniq ekvivalentga ega emas. Shu sababli bunday asarlarni tarjima qilish jarayoni oddiy lingvistik koʻchirish bilan cheklanib qolmaydi. Tarjimon nafaqat tilshunos, balki matnning ichki poetik tizimini anglay oladigan, badiiy tafakkur va adabiy anʼanalarni chuqur bilishga qodir tadqiqotchi ham boʻlishi lozim. Muallifning hayot yoʻli, ijod qilgan davrining ijtimoiy-maʼnaviy muhiti hamda klassik poeziya qoidalarini puxta bilish tarjimonga toʻgʻri yoʻnalish tanlashda, shuningdek, lirik qahramonning ichki kechinmalarini buzmasdan ifoda etishda muhim omil hisoblanadi.

Boburning mashhur baytlaridan biri badiiy mahoratining yuksak namunasi sifatida alohida eʼtiborga loyiqdir:

Sendek manga bir yori jafokor topilmas,

Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Mazkur baytda shoir ikki misra doirasida bir nechta murakkab va nafis badiiy sanʼatlarni uygʻun holda jamlay olgan. Xususan, tarseʿ, tardi aks, zulfikofiyatayn, muvozana, hajib va redif kabi sanʼatlar bir-biri bilan chambarchas bogʻliq holda qoʻllanib, baytning musiqiyliigi, simmetriyasi va taʼsirchanligini taʼminlagan. Ana shu

badiiy vositalarning mukammal uyg'unligi mazkur baytni klassik o'zbek poeziyasining haqiqiy «shohona» namunasi darajasiga ko'targan.

Ushbu baytni rus tiliga tarjima qilgan mashhur tarjimon R.D.Moran asliyatda mavjud bo'lgan barcha badiiy usullarni to'liq saqlab qolishga erisha olmagan.

*Возлюбленной вздорней, капризней, чем ты - не найти,
Тебе же покорней раба красоты не найти.*

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, u taxminan to'rttaga yaqin badiiy san'atni qayta yaratishga muvaffaq bo'lgan bo'lib, bu holat tillar o'rtasidagi struktura, semantik va poetik farqlarni hisobga olgan holda juda yuqori natija sifatida baholanadi. Qiyosiy tahlil shuni yaqqol ko'rsatadiki, asliyatning badiiy tizimini boshqa tilga to'liq ko'chirish deyarli imkonsiz bo'lib, har qanday tarjima muayyan darajada badiiy yo'qotish va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon hisoblanadi.¹

Tarjimon qanchalik bilimli va tajribali bo'lmasin, u baribir muayyan ma'noda tilning ichki imkoniyatlari va chegaralari bilan cheklanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, rus mutafakkiri F. M. Dostoyevskiy ta'kidlaganidek, *badiiy tarjimada bitta so'z kam yoki bitta so'z ko'p bo'lishi kerak*², degan mashhur fikri har doim ham o'zini to'liq oqlaveraydi. Ayniqsa, turli madaniy va adabiy an'analarga mansub bo'lgan, qardosh hisoblanmaydigan tillar o'rtasidagi tarjimada ushbu tamoyilni amalda to'laqonli tadbiq etish juda mushkuldir. Bunday holatlarda tarjima, aniq me'yorga qat'iy rioya qilishdan ko'ra, asliyat mazmuni va badiiy ta'sirini imkoni boricha moslashtirilgan shaklda qayta yaratishga intilishni talab etadi.

Bobur ijodidagi yana bir yorqin va mazmunan serqirra namuna Hindistonni zabt etish voqealari bilan bevosita bog'liq bo'lgan mashhur ruboiydir:

*Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi*³.

Mazkur ruboiyda shoir iychom san'atidan yuksak mahorat bilan foydalangan. Iychom - ko'p ma'nolilikka asoslangan badiiy usul bo'lib, u o'quvchini matnning bir nechta ma'no qatlamlari ustida mushohada yuritishga undaydi. Ayniqsa, «tole'» so'zining semantik imkoniyatlari ruboiy mazmunida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu leksema mazkur kontekstda «taqdir», «baxt», «mulk» yoki «hokimiyat» ma'nolarida talqin qilinishi mumkin. Bu ma'nolarning har biri shoirning tarixiy taqdiri, siyosiy qarorlari va ichki ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ruboiyning fojiaiy ruhini yanada kuchaytiradi.

¹ Т.Сайдалиев Бобур лирикаси бадийетининг русча таржималардаги талкини Филол. фан. докт. (DsC) дисс... автореф. – Т., 2007. – Б. 13.

² Фёдор Михайлович Достоевский. Дневник писателя. — Полное собрание сочинений в 30 томах. Т. 26. — Л.: Наука, 1984. — С. 65.

³ Bobur Z. M. Boburnoma. — Toshkent: Yulduzcha, 1990.

Shu jihatdan qaralganda, mazkur ruboiyni rus tiliga tarjima qilgan D. L. M. Penkovskiy¹ tarjima jarayonida murakkab tanlov oldida qolgan. Asliyatda mavjud bo'lgan ko'p ma'nolilikni rus tili vositalari orqali to'liq saqlab qolish imkoniyati cheklanganligi sababli, tarjimon ma'no variantlaridan faqat bittasini tanlashga majbur bo'lgan. Shunga qaramasdan, u lirik qahramonning ichki iztirobi, pushaymoni va ruhiy parokandaligini muvaffaqiyatli tarzda ifoda etishga erisha olgan. Bu holat tarjimada badiiy kompensatsiya usuli orqali muayyan ma'no yo'qotishlarini qisman bartaraf etish mumkinligini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini tarjima qilish juda murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda ma'no va badiiy tizimga oid ayrim o'zgarishlar muqarrar hisoblanadi. Biroq tarjimonlarning ilmiy bilimga tayangan, mas'uliyatli va ijodiy yondashuvi tufayli ruszabon o'quvchi o'zbek klassik adabiyotining yuksak estetik qiymati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Boburning boy adabiy merosi nafaqat Sharq poeziyasining nozik va murakkab qirralarini ochib beradi, balki Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan yosh avlod uchun ma'naviy tayanch vazifasini o'tab, ularni tarixiy xotira, bunyodkorlik va kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ishq lirikasida faqatgina taqdir zarbalari yoki vatan sog'inchii emas, balki shaxsiy his-tuyg'ular, ichki parokandalik, ruhiy iztirob va pushaymonlik motivlari ham alohida o'rin tutadi. Bu jihat, ayniqsa, uning ruboiyotlarida yaqqol namoyon bo'lib, shoirning shaxsiy kechinmalari badiiy umumlashma darajasiga ko'tariladi. Bobur ishqni faqat lazzat yoki romantik holat sifatida emas, balki inson ruhiyatini sinovdan o'tkazuvchi, ichki muvozanatni izdan chiqaruvchi kuch sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, ishq mavzusiga bag'ishlangan quyidagi ruboiyda shoir qalbining nozik kechinmalari, oshiqning ma'naviy iztirobi va ruhiy tanazzuli yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan:

Zulfig'a ko'ngul qo'yub, parishon bo'ldum,

Ko'z oldurubon yuziga, hayron bo'ldum.

Chin dey senga, Boburoki, oshiqlik'da,

Har neki qilib edim, pushaymon bo'ldum.

Ruboiyda "zulf" obrazi markaziy poetik detal sifatida namoyon bo'ladi. U oshiqni o'ziga jalb etuvchi, bir vaqtning o'zida asir etuvchi kuch ramzi sifatida talqin etiladi. Sharq klassik poeziyasi an'anasida "zulf" obrazi mahbubaning tashqi go'zalligini ifodalash bilan cheklanib qolmay, ishqning murakkab, irodani sindiruvchi, insonni ichki ixtilofga yetaklovchi mohiyatini ham anglatadi.

Ruboiydagi "parishon bo'ldum", "hayron bo'ldum", "pushaymon bo'ldum" kabi takroriy fe'l shakllari esa lirik qahramon ruhiyatida kechayotgan ichki inqirozning

¹ Pankovskiy D. L. M. Rubaiyat Babura. — Moskva: Nauka, 1978.

izchil bosqichlarini ifodalaydi. Bu takrorlar tasodifiy emas, balki ruhiy holatning chuqurlashib borish dinamikasini ko'rsatadi: avval parokandalik, keyin hayrat va nihoyat, pushaymonlik. Ana shu ketma-ketlik ruboiyning emotsional dominantasini belgilab, oshiq qalbining iztirobli holatini o'quvchiga ta'sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Bu esa uning ruboiyotlarini nafaqat estetik jihatdan, balki psixologik va falsafiy mazmun nuqtai nazaridan ham yuksak adabiy qadriyat darajasiga ko'taradi hamda ularni tarjima va qiyosiy tahlil uchun o'ta murakkab, biroq nihoyatda qimmatli badiiy manbaga aylantiradi.

Mazkur ruboiyning fransuz tiliga qilingan tarjimasi Bobur poeziyasining xalqaro adabiy makonda qabul qilinishi va uning estetik qiymati universal ekanini yaqqol namoyon etadi. Fransuz tili ishq, nafosat va ruhiy holatlarni nozik ifoda etish imkoniyatlariga ega til sifatida e'tirof etiladi. Shu bois Bobur ishq lirikasining fransuzcha talqini uning hissiy tarangligi va poetik ta'sirini saqlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Ruboiyning fransuz tilidagi tarjimasi quyidagicha berilgan:

*Sa tresse est un piège, je veux fuir,
Confus, fourbu et aveuglé - quoi de pire !
J'ai pitié de toi, Babur car dans tes amours
Qu'importe ta conduite, toujours du repentir.*

Fransuz tarjimasida "zulf" obrazi tresse (o'rim) leksemasi orqali ifodalanib, u piège (qopqon, silok) metaforasi bilan kuchaytirilgan. Bu holat tarjimonning badiiy transformatsiya usuliga murojaat qilganini ko'rsatadi. Asliytdagi ramziy obraz so'zma-so'z tarjima orqali emas, balki fransuz o'quvchisi uchun madaniy va hissiy jihatdan yaqin bo'lgan ekvivalent vositalar yordamida qayta yaratilgan. Natijada tarjimada formal muvofiqlikdan ko'ra, mazmun va emotsional ta'sirni saqlashga qaratilgan semantik-emotsional ekvivalentlikka erishilgan.

Ruboiyning rus tilidagi tarjimasi esa quyidagicha ifoda etilgan:

*Коса ее - силок, я залетел туда.
Смятенный, сбит я с ног и ослеплен - беда!
Мне жаль тебя, Бабур: в делах своих любовных
Как ни ведешь себя, ты каешься всегда.*

Rus tarjimasida ham "zulf" obrazining "silok" metaforasi orqali ifodalanishi mazkur badiiy obrazning universal xususiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, har ikki tarjima - rus va fransuz variantlari - asliytdagi pushaymonlik, ichki azob va oshiqona ojizlik holatini o'z tillarining ifoda imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatli tarzda qayta yarata olgan. Bu holat tarjimada badiiy kompensatsiya usulining samarali qo'llanganini ko'rsatadi.

Uch tilli qiyosiy tahlil shuni yaqqol namoyon etadiki, Bobur ruboiyotlaridagi badiiy obrazlar va poetik usullar milliy adabiy an'analar bilan chuqur bog'langan

bo'lsa-da, ular zamirida umuminsoniy his-tuyg'ular yotadi. Ana shu umuminsoniy mazmun ushbu asarlarni turli tillarga tarjima qilish va turli madaniy muhitlarda qabul qilinishiga zamin yaratadi. Fransuz va rus tarjimalari misolida ko'rinib turibdiki, tillar o'rtasidagi struktura va semantik farqlarga qaramasdan, tarjimonlar obrazli transformatsiya va badiiy kompensatsiya orqali original matnning ruhiy-estetik ta'sirini saqlab qolishga intilganlar.

Ruboiyning fransuz tiliga qilingan tarjimasida zamonaviy tarjimon Sophie Gindt¹ tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u Bobur ishq lirikasining estetik qiymatini fransuz o'quvchisiga yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Tarjimada aslyatga xos hissiy taranglik, ichki iztirob va pushaymonlik motivlari saqlangan holda, fransuz adabiy an'analarga mos ravishda qayta ifoda etilganini hamda Bobur poeziyasining universal tabiatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu tariqa, Bobur ishq lirikasi misolida olib borilgan uch tilli qiyosiy tahlil uning badiiy merosi nafaqat milliy adabiyot doirasida, balki jahon adabiy makonida ham yuksak estetik qiymatga ega ekanini ko'rsatadi. Pushaymonlik, oshiqona ojizlik va ichki ruhiy iztirob kabi motivlar til va madaniy chegaralarni yengib o'tib, turli xalqlar o'quvchilari qalbiga ta'sir ko'rsatish qudratiga egaligi bilan Bobur poeziyasining umuminsoniy ahamiyatini belgilaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur poeziyasida ishq mavzusi faqat hissiy kechinmalar ifodasi bilan cheklanib qolmay, inson irodasining sinovi, aql va ehtiros o'rtasidagi murakkab ziddiyat sifatida ham talqin qilinadi. Shoir ishqni insonni ichki muvozanatdan chiqaruvchi, uning aqliy nazorati va ijtimoiy mavqeyini inkor etuvchi mutlaq kuch sifatida tasvirlaydi.

Ayniqsa, ruboiy janrida bu g'oya ixcham shaklda, biroq falsafiy jihatdan g'oyat teran mazmun kasb etib, qisqa poetik tuzilma doirasida keng ma'no qatlamlarini mujassamlashtiradi.

Quyidagi ruboiyda ishq qarshisida inson aqlining ojizligi, hatto podshoh ham bu kuch oldida notavon ekani haqidagi g'oya ravshan ifoda etilgan:

Ko'zlaring tushdi ko'nglumga nogahon,

Aql ketti, sabr qochti bir zamon.

Bobur der: ishq ichra kim bo'lsa omon?

Bu yo'lda shoh ham qolur beomon².

Bu ruboiyda "ko'z" va "ko'ngul" obrazlari ishqning nogahon, inson irodasiga bo'ysunmaydigan va qarshi turib bo'lmay kuch ekanini ramziy tarzda ifodalaydi. Ishq tashqi ta'sir - nigoh orqali kirib kelib, ichki olam - ko'ngulni mutlaq egallab oladi. "Aql

¹ <https://www.facebook.com/ambafrancetachkent/posts/-pour-tous-les-amoureux-la-traduction-en-francais-langue-de-lamour-du-po%C3%A8me-du-g/3979566102096265/> yoki Gindt S. Poésie de Babur (traductions françaises). — Paris, 2005.

² Bobur Z. M. Boburnoma. — Toshkent: Yulduzcha, 1990.

ketti, sabr qochti" iboralari esa ishq ta'sirida insonning ma'naviy tayanchlari - aql va iroda bir zumda o'z ahamiyatini yo'qotishini ko'rsatadi. Bu holat ishqning faqat hissiy emas, balki inson shaxsiyatiga chuqur ta'sir etuvchi falsafiy kuch ekanini ta'kidlaydi. Ruboiyning yakunlovchi misrasidagi "shoh ham omon qolmas" degan xulosa esa g'oyani umumlashtirib, ishq oldida ijtimoiy maqom, hokimiyat va zohiriy qudratning ahamiyatsizligini ramziy tarzda ifodalaydi. Bu yerda shoh obrazi alohida shaxs emas, balki mutlaq hokimiyat va dunyoviy qudrat timsoli sifatida namoyon bo'lib, ishqning barcha ijtimoiy chegaralarni yo'qqa chiqaruvchi universal kuch ekanini tasdiqlaydi.

Ruboiy fransuz tiliga Jean-Paul Roux tomonidan tarjima qilingan bo'lib, u o'z talqinida tarixiy-adabiy uslubni saqlagan holda mazmunni ixcham, ravon va ta'sirchan tarzda yetkazishga erishgan:

*Quand ton regard tomba soudain sur mon cœur,
La raison s'enfuit, la patience eut peur.
Babur le dit : qui sort sauf de l'amour ?
Même un roi y demeure sans secours.¹*

Fransuz tarjimasida "Aql ketti" iborasining la raison s'enfuit shaklida ifodalanishi originaldagi ma'noni to'liq saqlagan holda, fransuz tilining tabiiy uslubiga mos ravishda qayta yaratilganini ko'rsatadi. Shuningdek, "Shoh" obrazi ham to'liq saqlanib, uning ishq oldida ojiz ekani fransuz o'quvchisi uchun ham aniq va ta'sirchan tarzda yetkazish imkonini bergan. Shu ma'noda, ushbu fransuzcha tarjima Bobur ruboiylaridagi falsafiy mazmunni yo'qotmasdan, uni boshqa til va madaniy muhit doirasida qayta ifodalash mumkinligini namoyon etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarida ishq va hijron mavzusi ruboiylarga nisbatan yanada kengroq va murakkab badiiy fazoda ochiladi. Agar ruboiyda ishq ko'pincha falsafiy xulosa va ichki kechinmaning ixcham ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, g'azalda u inson butun mavjudligini qamrab oluvchi, hayot tarzini, ijtimoiy maqomni va ruhiy holatni tubdan o'zgartiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Quyidagi g'azal parchasida ishq inson hayotining vaqt o'lchamlarini, ichki olamini va ijtimoiy o'zini anglashini to'liq egallab olgan holatda ifodalangan:

*Ishqing bilan o'tdi tunum, kunduzum,
Sensiz xarobdur bu ko'ngul mulkuzum.
Shohman, ammo ishq ichra g'aribman,
Qul bo'ldum, ey yor, birgina so'zungdan.*

Ushbu parchada "tun" va "kunduz" obrazlari orqali ishqning vaqtga mutlaq hukmronligi ifodalanadi: oshiq uchun hayotning barcha lahzalari mahbub bilan bog'liq holda kechadi. "Ko'ngul mulki" tushunchasi esa insonning ichki olami, ruhiy hududi va ma'naviy boyligi ramzi sifatida namoyon bo'lib, mahbubasiz u vayrona holga

¹ Roux J.-P. Anthologie de la poésie tchaghataï. — Paris: Gallimard, 1987.

kelganini anglatadi. Bu yerda ishq shaxsiy his-tuygʻu doirasidan chiqib, butun maʼnaviy mavjudlikni qamrab oluvchi metafizik kuch darajasiga koʻtariladi. Gʻazaldagi “mulk”, “shoh”, “qul” kabi ijtimoiy-siyosiy tushunchalar ishq kontekstida qayta talqin qilinadi. Shoir oʻzini “shoh” deb atagan holda, ishq oldida “gʻarib” va “qul”ga aylanganini ochiq tan oladi. Mazkur badiiy antiteza Bobur poeziyasiga xos falsafiy chuqurlikni ifodalab, ishqning barcha ijtimoiy iyerarxiyalarni inkor etuvchi mutlaq kuch ekanini taʼkidlaydi. Mazkur gʻazal parchasi fransuz tiliga François Balsan tomonidan tarjima qilingan boʻlib, u asliyat matndagi obrazli tizimni fransuz adabiy anʼanalariga mos holda qayta yaratishga intilgan:

*Ton amour a pris mes nuits et mes jours,
Sans toi, mon cœur n'est qu'un royaume en ruine.
Je suis roi, pourtant mendiant en amour,
Captif d'un seul mot de ta voix divine.¹*

Fransuz tarjimasida “koʻngul mulki” obrazi royaume en ruine (“vayrona boʻlgan qirollik”) metaforasi orqali ifoda etilgan boʻlib, u original obrazning hissiy va maʼnaviy kuchini saqlab qolgan. Bu metafora nafaqat ichki vayronagarchilikni, balki ishqsiz hayotning maʼnaviy tanazzulini ham ifoda etadi. Shuningdek, “shoh” va mendiant (“gado”) qarama-qarshiligi ishq oldidagi ruhiy parokandalikni yanada yorqin namoyon qilib, Bobur gʻazalidagi falsafiy gʻoyani fransuz oʻquvchisi uchun ham tushunarli va taʼsirchan shaklda yetkazadi. Ishq, hijron, iroda va qullik kabi motivlar orqali Bobur poeziyasi inson ruhiyatining eng nozik va murakkab qirralarini ochib beradi.

Bobur ishq lirikasining yana bir talqini fransuz adabiy muhitida Éva de Vitray-Meyerovitch tomonidan amalga oshirilgan erkin tarjimada kuzatiladi. Mazkur talqinda ishq taqdir bilan tenglashtirilib, insonni tubdan oʻzgartiruvchi, uning aqli, ijtimoiy mavqeyi va irodasini bartaraf etuvchi mutlaq kuch sifatida talqin qilinadi:

*L'amour est un feu dont nul ne sort intact,
Il brûle le sage autant que l'insensé.
Babur l'apprit : même le roi le plus grand
Devient pauvre devant l'aimée adorée.²*

Ushbu tarjimada soʻzma-soʻz muvofiqlikdan ataylab chekinish kuzatilsa-da, Bobur poeziyasiga xos markaziy falsafiy gʻoya - ishq oldida barcha mavjudotning tengligi - toʻliq saqlangan. Ishq obrazining “olov” metaforasi orqali ifodalanishi uning ikkiyoqlama mohiyatini ochib beradi: u bir tomondan vayron qiluvchi, ikkinchi tomondan esa insonni maʼnaviy jihatdan poklovchi kuch sifatida namoyon boʻladi. Bu olov dono bilan nodonni, hukmdor bilan oddiy insonni farq qilmasdan birdek qamrab oladi.

¹ Balsan F. Poésie turque ancienne. — Paris: Adrien-Maisonneuve, 1944. — P. 86–87.

² Vitray-Meyerovitch, Éva de. Mystique et poésie en Islam. — Paris: Desclée de Brouwer, 1972.

Maqolada ko'rib chiqilgan ruboiylar, g'azallar va ularning rus hamda fransuz tillaridagi tarjimalari tahlili Bobur ishq lirikasining murakkab, ko'p qatlamli va universal tabiatga ega ekanini yaqqol namoyon etadi. Asliyatda chuqur milliy poetik an'analarga suyangan badiiy obrazlar tarjima jarayonida muayyan transformatsiyaga uchrasa-da, ular zamiridagi umuminsoniy his-tuyg'ular - ishq, pushaymonlik, irodaning ojizligi va ruhiy iztirob - turli til va madaniy muhitlarda ham o'z ta'sir kuchini yo'qotmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur poeziyasi o'zbek klassik adabiyotining eng yuksak badiiy va falsafiy namunalaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Uning ruboiy va g'azallarida qo'llangan badiiy usullar - tarse', tardi aks, iyhom, redif, metafora, antiteza va ramziy obrazlar - qisqa poetik shakl doirasida keng ma'no qatlamlarini mujassamlashtirish imkonini beradi. Bobur ishqni faqat romantik tuyg'u emas, balki inson irodasi, aqli va ijtimoiy mavqeyini sinovdan o'tkazuvchi mutlaq falsafiy kuch sifatida talqin qiladi.

Maqolada olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Bobur asarlarini rus va fransuz tillariga tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijodiy faoliyat bo'lib, unda muayyan ma'no va badiiy yo'qotishlar muqarrardir. Ayniqsa, iyhomga asoslangan ko'p ma'nolilik, milliy poetik ramzlar va musiqiylikni to'liq saqlash tarjima tili imkoniyatlari bilan cheklanadi. Shunga qaramasdan, R. D. Moran, D. L. M. Penkovskiy, Jean-Paul Roux, François Balsan, Éva de Vitray-Meyerovitch va Sophie Gindt kabi tarjimonlar semantik ekvivalentlik, badiiy kompensatsiya va obrazli transformatsiya usullariga tayanish orqali asliyatning ruhiy-estetik ta'sirini imkoni boricha saqlab qolishga intilganlar.

Uch tilli (o'zbek, rus, fransuz) qiyosiy tahlil natijalari Bobur poeziyasidagi badiiy obrazlar milliy adabiy an'analalar bilan chuqur bog'langan bo'lsa-da, ular zamirida umuminsoniy mazmun - ishq, pushaymonlik, ichki iztirob, inson ojizligi kabi tuyg'ular yotishini yaqqol namoyon etdi. Ana shu umuminsoniy mazmun Bobur asarlarining turli til va madaniy muhitlarda qabul qilinishiga, jahon adabiy makonida munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babur, Z. M. (1989). Devon. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Babur, Z. M. (2005). Boburnoma. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Saydaliyev T. (2007). Bobur lirikasi badiyotining ruscha tarjimalardagi talqini Filol. fan. dokt. (DsS) diss... avtoref. - Toshkent.
4. Dostoyevskiy, F. M. (1981). O literature i iskusstve. Moskva: Khudozhestvennaya literatura.
5. Morin, R. D. (1963). Poésie orientale: traductions et études. Paris: Gallimard.

6. Penkovskiy, D. L. M. (1978). *Vostochnaya lirika v russkom perevode*. Moskva: Nauka.
7. Roux, J.-P. (1991). *Anthologie de la poésie tchaghataï*. Paris: Éditions Gallimard.
8. Balsan, F. (1998). *Poètes turco-persans de l'Asie centrale*. Paris: UNESCO.
9. Vitray-Meyerovitch, É. de. (1982). *Poésie mystique de l'Islam*. Paris: Albin Michel.
10. Gindt, S. (2020). *Traductions poétiques de Babur [Manuscript]*. Paris.